

“Agar biz O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo`lsak, avvalombor buyukyozivchilarni, buyuk shoirlarni, buyukijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug` adib Cho`lpon aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi”

I.A.Karimov

KIRISH

**ERKIN
VOHIDOVNIN
G BADIYYAT
QIRRALARI**

Bu vatanda bir Vatan

***Qurmoqni istaydir ko`ngil,
O`zni ozod qush kabi***

Ko`rmoqni istaydir ko`ngil.

Qutlug` istiqlol kunida,

Ey Vatan, bag`ringda shod


Erkin o`g`loning bo`lib


Yurmoqni istaydir ko`ngil.

Erkin Vohidov she'riyati leksikasi etimologik nuqtai nazardan quyidagi manbalar asosida shakllangan:


Asl umumturkiy so`zlar qatlami:

*o`sha, tutildi, qaro, qayradi,
buyuk, bo`layotir, ulug`, ko`l,
qardosh, yoz, payt, yurak, qizdirsa,
biz, siz, kelgusi, shamol, bir,
qonni, joylamoq, toblaydi, sovg`a,
o`tli, tag`in, yurt kabi.*






Fors-tojik tilidan o`zbek tiliga o`zlashgan so`zlar Erkin Vohidov she'riyatida ancha faoldir. Bunday so`zlar avvalo ot, qolaversa, sifat turkumiga mansub leksik birliklardir: *mehr, abr, orzu, chaman, abri nayson, otash, beshak, betimsol, bemisl, bemajol, badxo`, sho`xi badxo`, astoydil, larzakor, sunbulband, xazonrez, diltang, purziyo, shiddatkor, sarmast, juvonmarg, mujda, padar, zabon, beomon, yakkash, serhasham, hamqadam, parishon, do`st, do`stlik, bamisli, xilxona* va boshqalar.



Erkin Vohidov she'riyati leksikasining yana bir manbasi arab tilidan o`zlashgan so`zlardir. Mushtaraklik va an'ana shoir she'riyatida qo`llangan arabcha so`zlarning poetik bo`yoqdorligini namoyish etgan: *oshiq, olim, fursat, lutf, mulk, husn, xalq, abad, azim, hajr, ayon, mansab, hasrat, g`orat, anbar, g`anim, andalib, xilqat, qalb, farax, uzor, sanam, ag`yor, bashar, bahr, boqiy, vasl, visol, ishq, oshiq, kabir, qadar, malak, istiqlol, mustaqil, musallo, mumtoz, aljabr, g`arib, munojot, jannat, malomat, halovat, hurriyat, tarahhum, martaba, mo`tabar, shayton, muhabbat, habib* so`zlari shular jumlasidandir.



Baynalminal so`zlar Erkin Vohidov poetik leksika tarkibida ancha miqdorga ega. Bular ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi so`zlar, terminlar, shuningdek, tarjimalardagi va boshqa she'rlardagi har xil atoqli otlardir.



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodida fikrni tiniq ifodalashga, hayot manzaralarini, shoir o`z qalbida paydo bo`lgan his-tuyg`ularni obrazlar orqali tasvirlashga intilishi kuchli. Shoir she`rlarini uslubi ravon, tili tushunarli, badiiy tasvir vositalarining o`rinli ishlatishdadir. U o`z she`rlariga qayta-qayta sayqal beradi, uni o`qimishli qilishga intiladi. Shoir she`rlarida ona Vatanga muhabbat, sevgi va sadoqat, mehnat va do`stlik, fidoyilik va insoniylik tarannum etiladi. Shoir she`rlari mavzu doirasining rang-barangligi bilangina emas, balki yuksak badiiyligi bilan ham yuqori pog`onada turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2011 yil.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2010 yil.
3. Ermuhammedov A. Erkin Vohidovning talmih qo`llash san`ati // Til va adabiyot ta`limi.-2002, -№3.
4. Vohidov E. O`rtada begona yo`q. –T.: Yozuvchi, 1991 yil.
5. Vohidov E. Umrin daryosi.-T.: “Sharq”, 2001 yil.
6. Vohidov E. Orzuli dunyo. -T., 2010 yil.
7. Mahsumova S. Erkin Vohidovning antitezadan foydalanish mahorati //O`zbek tilshunosligining dolzarb masalalri (II-qism).-T., 2005 yil.
8. Mahsumova S. Erkin Vohidov she`riy asarlarida konnotativ ma`nolarning ifodalanishi // O`zbek tilshunosligi masalalari. –T., 2003 yil.
9. Nazarov B. XX asr o`zbek adabiyotida Erkin Vohidov ijodining o`rni va ahamiyati// O`zbek tili va adabiyoti. –T., 2007 yil.

The image features a central light blue star with a black outline. Above the star, there are five circles arranged horizontally: a solid light blue circle, an empty circle with a light blue outline, a solid light blue circle, an empty circle with a light blue outline, and a solid light blue circle. The text "E'tiboringiz uchun rahmat!" is centered within the star.

E'tiboringiz uchun rahmat!